

OMON MUXTOR ROMANLARIDA RITM VA BADIY TIL IFODASI

Yuldosheva Umida Xaitali qizi

O'zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati

Guliston Davlat universiteti "Adabiyotshunoslik"

yo'nalishi tayanch doktoranti

+998994403996

OMON MUXTOR ROMANLARIDA RITM VA BADIY TIL IFODASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada shakiliy unsurlardan sanalgan ritm va badiiy til haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlar yoritilgan. Ritm va badiiy tilning asardagi ahamiyati Omon Muxtor romanlari tahlili misolida tushuntirib berilgan. Omon Muxtorning badiiy va poetik mahoratining yana bir qirrasini ritm va badiiy tilning turfa imkoniyatlaridan o'rinli foydalana bilganligida ekanligi tahlil qilindi. Maqolada muallifning "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Ffu" romanlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar. Shakiliy unsurlar, ritm, badiiy til, emotsional yondashuv, fantastik omil, poetik mahorat, konflikt, to'qima obraz, ramz, muallif nutqi, personaj nutqi, muallifning o'zini bo'lmagan nutq, tashqi nutq, ichki nutq.

РИТМА И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЯЗЫК В РОМАНАХ АМОН МУХТОР

Абстрактный. В данной статье освещаются научно-теоретические сведения о ритмике и художественном языке, который рассматривается с изобразительных элементов. Объясняется значение ритма и художественного языка в произведении на примере анализа романов Амона Мухтара. Проанализировано, что еще одним аспектом художественно-поэтического мастерства Амона Мухтара является его способность использовать различные возможности ритма и художественного языка. В статье использованы романы автора «Тысяча лиц», «Человек перед зеркалом», «Руина на холме», «Страна и королевство женщин», «Ффу».

Ключевые слова. Художественные элементы, ритм, художественный язык, эмоциональный подход, фантастичность, поэтическое мастерство, конфликт, фактурный образ, символ, авторская речь, речь персонажа, речь не авторская, внешняя речь, внутренняя речь.

RHYTHM AND ARTISTIC LANGUAGE EXPRESSION IN OMON MUKHTOR'S NOVELS

Abstract. In this article, scientific-theoretical information about rhythm and artistic language, which is considered from the figurative elements, is covered. The importance of rhythm and artistic language in the work is explained on the example of the analysis of Amon Mukhtar's novels. It was analyzed that another aspect of Amon

Mukhtar's artistic and poetic skills is his ability to use the various possibilities of rhythm and artistic language. The author's novels "A Thousand Faces", "The Man in Front of the Mirror", "The Ruin on the Hill", "The Country and the Kingdom of Women", "Ffu" were used in the article.

Keywords. Artistic elements, rhythm, artistic language, emotional approach, fantastic factor, poetic skill, conflict, texture image, symbol, author's speech, character's speech, speech that is not the author's own, external speech, internal speech.

Ritm ham shakliy unsurlardan biridir. Uni ko‘rib bo‘lmaydi, ammo asar o‘qilishi davomida ritm o‘zgarishlari ongli ravishda sezilib turadi va bu mazmunga ta’sir qiladi. Ritm – badiiy asar tilida o‘z ifodasini topadi. Omon Muxtor asarlari ritm o‘zgarishlariga boyligi sababli ham qiziqish bilan o‘qiladi. Asarlarining kulminatsiyasi eng yuqori ritmda, konfliktlari esa tezkor ritmda yozilgan. Asarning tavsif qismida esa, asosan sokinlik, bir xil ritm hukumronlik qiladi. Omon Muxtor asarlari turg‘unlikdan holi. Ritmning asarni tushunilishini osonlashtirish va jozibali qiladi, voqealarning kitobxonga oson yuqtirish kuchidan mohirona foydalangan. Lirik asarlarda ritmik intonatsiya juda muhim bo‘lib, lirik qahramon bo‘lmish shoir kechinmalarini kitobxonga tez yuqtiradi, she’r mohiyatini teranroq anglashga yordam beradi. Epik asarlarda ham ritm muhim shakliy omildir. U muallif va qahramon nutqini bir-biridan farqlash, qahramon kayfiyatini yuzaga chiqarish uchun ham asos bo‘ladi. Ritm har bir turda muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan ritm eng yetakchilik qiladigan tur bu dramatik turdir. Negaki dramatik tur sahna uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosan dialoglardan iborat bo‘ladi. Ritmning o‘zgarishi ko‘p hollarda remarka shaklida beriladi. Shu bilan birga, sahna asarlari namoyish etilayotganida aktyorlar ritmga jiddiy e’tibor qaratishadi. Negaki, ritmning o‘zgarishi mazmuning o‘zgarishga, vaziyatga baho berishga sabab bo‘ladi. Ritmik intonatsiyaning o‘zgarishi emotsionallikning o‘zgarishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida asarda burilishlar sodir bo‘layotganligini ko‘rsatadi. Muallif emotsionallik orqali kitobxonga qahramon va vaziyat haqidagi o‘z fikrini yuqtiradi. Ya’ni yaxshi deb bilgan qahramonlariga ijobiy intonatsiya bilan yondashadi va o‘z o‘rnida kitobxonni ergashtiradi. Salbiy deb bilgan qahramonlariga esa, aksincha yondashadi. Biroq, modernizm adabiyotida qahramonlarni salbiy va ijobiy deb baholashdan yiroqlashilgan, uning bahosini kitobxon o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib belgilamoqda va bunda muallif holislik tarafdoriga aylanayapti. Ammo biz modernizm adabiyoti ritmdan uzoqlashmoqda degan fikrdan tamoman yiroqmiz. Ritm o‘z o‘rnida, faqat muallifning salbiy va ijobiy qahramon sifatidagi emotsional yondashishi, kitobxonga ta’siri kamaygan.

Omon Muxtor romanlarida ham ritm rang-barang holatda namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida fantastika, tarixiylik, diniy dunyoqarash umumlashgan holatda namoyon bo‘ladi. Ularning har biri o‘ziga xos ritm asosida tasvirlangan. Shu bilan

birga Omon Muxtor sirlilikni deyarli har bir asariga singdirib yuborgan edi. Uning “Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”, “Ayollar mamlakati va saltanati”, “Ffu” romanlari fikrimizning yorqin dalilidir.

“Ming bir qiyofa” romanida – Muhammad Rahimxon II bilan bog‘liq tarixiy voqealar keltirilgan. Unga to‘qima obraz bo‘lgan Nasriddin Afandi obrazi kiritilgan bo‘lsada, otasi Rahim, akalari – Salimbek, Karimbek, ukalari – Hakimbek, Naimbek va hukumdor Rahimxon II tarixiy shaxslar bo‘lib, ular bilan bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar ham asarga kiritib o‘tilgan. Bosh qahramonimiz bo‘lgan Abdulla Hakimning o‘limidan so‘ng “Go‘r azobi” qismida keltirilgan farishtalar bilan suhbat, uni Jannatga noloyiq deb topilishi, garchi hech qanday gunoh qilmaganman deb hisoblasada, ammo qilgan yaxshi amallari Jannatga kirish uchun yetmasligi voqealari diniy tafakkur va bilimning mahsuli edi. Fantastika – muallif asarlarini busiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu romanda haydovchisiz o‘zi yurar avtobus, bir-biridan beo‘xshov kimsalar, bo‘roning butun boshli idorani tag-tubi bilan ko‘tarib sahroga oilib borib tashlashi va buni hech kim sezmasligi (Sadirjondan boshqa), Abdulla Hakimning ruhi osmonga ko‘tarilib, tanini va bo‘layotgan voqealarni kuzatishi muallif xayolotining mahsulidir.

“Ko‘zgu oldidagi odam” asarida – Iblis, uning yordamchilari, masjididagi domla va u bilan iymon haqidagi suhbat, asar yakunida aynan duolar kuchi bilan kishanlardan ozod bo‘lish diniy bilim asosida yozilgan. Bir asarda Siroj muallimning birdaniga uch holatda namoyon bo‘lishi, ancha vaqtdan buyon mavjud bo‘lgan choyxonaning birdaniga yo‘q bo‘lib qolishi va aslida hech qachon bo‘lmaganligi, noma‘lum g‘orda Valijon o‘z qiyofasidagi minglab erkak-ayollarga duch kelishi, keyin esa shu g‘or orqali o‘tilgan vodiya g‘alati, chatishtirilgan hayvonlarga duch kelishi, o‘zi yurar kursilar fantastikadan dalolat beradi.

“Tepalikdagi xaroba” romanida Ismoil Somoiy, Nasr ibn Ahmad, uning otasi haqidagi tarixiy voqealar, shuningdek Lutfiy, Mashrab, Bayron bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar tarixiy haqiqatdir. Mirza G‘olibning qayta-qayta aylanib bir tepalik va undagi xaroba oldidan chiqib qolaverishi, xarobadagi jasadlar tunda paydo bo‘lib, tongda yo‘qolishi kabilarni fantastik omil deb qarashimiz mumkin.

“Ayollar mamlakati va saltanati” romanida – Nodirabegim, Amir Umarxon, Muhammad Alixon, Nasrullaxonga bog‘liq syujetlar tarixiy voqealardir. “Kampir ko‘prik”, “tegirmontoshiga o‘xshash yo‘l”, “kemasimon qamoqxona” bular fantastika mahsuli bo‘lib har birining yana bir asosiy vazifasi bor. Muallif ularni detall darajasiga ko‘targan va ularni ramziy ma‘noda qo‘llagan.

“Ffu” romani xonlik zamonini haqida yozilgan bo‘lib, tarixiy shaxslardan amir obrazini uchratamiz. Voqealar o‘tmish davri haqida bo‘lsada, reallikdan yiroq. Ya‘ni bosh qahramon Mulla Toshpo‘lat o‘g‘li uchun bozordan “aql” sotib olishi, buning natijasida farzandidagi keskin o‘zgarishlar fantaziyaning mahsulidir. Ushbu yo‘nalishlarning har biri o‘z ritmiga ega.

Shakliy omillardan yana biri “badiiy til”dir. Badiiy til kundalik hayotda ishlatadigan so‘zlashuv tilimizdan obrazlilik va tasviriy ifoda vositalariga boyligi bilan farq qiladi. “Adabiy asar tili o‘z jozibadorligi, shiraliligi, serma’nomiligi va bo‘yoqdorligi bilan kitobxonning diqqatini o‘ziga tortadi” [1-164]. Biroq “badiiy asar tilning jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlasha boshlashi bilan ikkalasi o‘rtasidagi farq yo‘qola boradiki” [2-239], natijada zamonaviy adabiyotda yozilayotgan ba’zi asarlarda tasviriy ifodaga ko‘p e’tibor qaratilmayapti. Ammo obrazlilik hali hamon yetakchilik qilmoqda. Omon Muxtor romanlarida esa tasviriy ifodaga boyligi bilan ham kitobxonni qiziqtirib kelmoqda. Badiiy asar tili uch xil nutqda voqelanadi:

- 1- muallif nutqi;
- 2- personaj nutqi;
- 3- muallifning o‘ziniki bo‘lmagan nutqi.

Omon Muxtor o‘z asarlarida bu nutqlarning barchasidan o‘rinli va mohirona foydalanib kelgan. Muallif nutqi – nomi bilan ayonki, asar yozuvchisining nutqi bo‘lib, ko‘p hollarda tavsif, holatlar, portret va peyzajlar yoziladigan nutq. “Shamollar quturib, qum ko‘chgan, yovvoyi o‘t o‘lanlar g‘ovlab o‘sib yotgan bepoyon bir sahro bor edi”, [3-126] – peyzaj tasviri muallif nutqida ifodalangan. Personaj nutqi esa asar qahramolarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutqi bo‘lib, ko‘proq dialog shaklida namoyon bo‘ladi. Muallif nutqida yozuvchi ko‘proq adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda yozadi, personaj nutqida so‘zlashuv uslubidan foydalanadi. Kitobxonni qahramonga yaqinlashtirish, asarni teranroq his qildirish uchun ham yozuvchi personaj nutqida so‘zlashuv uslubidan foydalanadi. Negaki, nutq ham qahramon xarakterini ochib berish uchun vositalardan biridir. Nafaqat nutq egasining xarakterini, balki boshqa qahramonlar xakteri va vaziyat, holat haqida ham axborot berish vositasidir.

“ – Bechora...

- Bechoralikka bechora. Kishi achinasan. Shunga qaramay, sirasini aytganda, muttaham, tovlamachi odam edi rahmatli. O‘zi o‘zining boshiga yetdi.

- Qadrdongizni shunaqa deysizmi?

- Ey, yolg‘onga yo‘l ochib, xalqqa xiyonat qilgan bunday serkani boshqa qanday baholash kerak?! Ba’zan qadrdonligingga ham xafa bo‘lib ketasan” [3-157]. Personaj nutqidan olingan ushbu parchada G‘ulomjonning (“Ming bir qiyofa”) aslida qanday odam bo‘ganligi haqida aborot yetkazilmoqda. Bunda nutq egasining xakteri emas, nutq qaratilgan shaxsning xakteri ochib berilgan.

O‘ziniki bo‘lmagan muallif nutqi deyilganda nuallif nutqi kabi ifodalanadiyu, ammo personajga tegishli bo‘lgan nutq tushuniladi. “Undan ko‘pincha personaj o‘y-mushohadalari, ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni tasvirlash uchun samarali foydalaniladi” [2-249]. Nutq ikkiga tashqi va ichki nutqqa bo‘linadi. Muallif nutqi va personaj nutqi – tashqi nutq, o‘ziniki bo‘lmagan muallif nutqi esa ichki nutqdir.

“Тепalikdagi xaroba” asarida muallifning o‘ziniki bo‘lmagan nutqi yetakchilik qiladi. Asar voqealarining katta qismi kimsasiz dashtga tushib qolgan, jamiyatdan uzulib qolgan Mirza G‘olib hayotini aks ettirgan. Asar davomida Mirza G‘olib ba‘zan hushli, ba‘zan hushsiz holatda o‘y-mushohadalar yuritadi. “U bo‘ynini qisganicha, o‘z xayolidan qochayotgandek, ro‘paradan kelayotganlarga xalal bermasdan, so‘qmoq chekkalab bir necha qadam ilgari yurdi. Ammo yana to‘xtadi” [3-356] – rivoya nutqi bo‘lib, muallif qahramonning hrakati va holati haqida aytib o‘tmoqda. Shu o‘rindan o‘ziniki bo‘lmagan muallif nutqi boshlanadi. “Qochma yolg‘izlik faqat birovlar emas, senga ham tegishli. Dunyoga yolg‘iz kelgansan, yolg‘iz ketasan... nega insonni bunday yaratgansan, ey Xudo?! Ko‘p bo‘lib yashasa hamki, o‘z ahvolini tushunib, o‘z hoyoti bobida bir kuni o‘zi javob bersin uchunmi?! Boshqalarga gunohini ag‘darmasin uchunmi?! Tavba...” [3-356]. Muallif romanlarida nutqning barcha shakllarini uyg‘unlashtira bilgan.

Omon Muxtor romanlari istiqloq davrida yangi bosqichga ko‘tarilgan adabiy jarayon mahsulidir. U an’anaviy shakllardan qochgan, butkul yangicha shakl va ritmda asarlar yozgan. Uning asarlari takror va takrorlanmas romanlardir. Shakl jihatidan ham, mantiq jihatidan ham original asarlar yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T.: O‘zbekiston, 2002.
2. Quronov D. “Adabiyot nazariyasi asoslari”. T.: Navoiy universiteti, 2018.
3. Muxtor O. “To‘rt tomon qibla”. T.: Sharq, 2000.
4. ziyo.uz